

2019 yil yanvar-aprel oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2215,3 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **107,2 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **1272,2 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **110,6 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **57,4 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **65,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2215,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 107,3 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 65,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 109,7 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2075,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,6 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	6,4	7,3	87,7
Paxta linti, ming tonna	1,4	1,7	82,4
Aroq – ming litr 100 % spirt	141,6	404,2	35,0
Vino, ming litr	29,2	62,3	46,9
Un, ming tonna	40,9	37,9	107,9
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	5,3	6,0	88,3



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 110,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,0 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1272,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 10,6 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 57,4 % ni tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



davomi

2018 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 31,9 % dan 2019 yilning yanvar-aprel oyida 33,5 % ga ortgan.

Yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da





2018 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 68,1 % dan 2019 yilning yanvar-aprel oyida 66,5 % bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatilmoqda.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 461,5 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida bu ko'rsatkich 20,8% ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.




- Viloyatning boshqa korxonalari
- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

davomi

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,1 % ulushini), Namangan (10,7 %), Uchqo'rg'on (10,3 %), To'raqo'rg'on (8,1 %), Uychi tumani (7,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,2 %), Chortoq (1,8 %), Norin (2,5 %) , Kosonsoy (3,2 %) va Mingbuloq (3,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 44,9 %), Namangan (10,3 %), Uchqo'rg'on (10,0 %) hamda To'raqo'rg'on (7,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Namangan shahrida, Pop va Namangan tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (1522,8 ming so'm), Uchqo'rg'on (1357,3 ming so'm), Namangan tumanida (1353,2 ming so'm), va To'raqo'rg'on (815,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (803,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 461,3 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 930,8 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 756,7 ming so'mni, Namangan tumanida 750,8 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 457,3 ming so'mni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollari xajmlari



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 1451,5 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 65,5 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (100,0 %), Namangan (85,0 %) va Uychi (77,1) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (16,0 %), Pop (23,7 %) va Chust (45,3 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 5033 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2231 tasi Namangan shahrida, 371 tasi Chust, 357 tasi Uychi, 345 tasi Namangan, 322 tasi Kosonsoy, 297 tasi To'raqo'rg'on, 225 tasi Uchqo'rg'on, 203 tasi Norin, 197 tasi Yangiqo'rg'on, 188 tasi Chortoq, 188 tasi Pop va 109 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2019 yil 1 may holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



2019 yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 778 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 57,3 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Norin tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 may holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80